

YURTIMIZDA MEVA-SABZAVOT VA OZIQ-OVQAT EKSPORTINI KO‘PAYTIRISH BO‘YICHA MUHIM CHORA-TADBIRLAR BELGILAB OLINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 30-iyul kuni meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi sohasi salohiyati yuqori. So‘nggi uch yilda 250 ming gektar paxta va g‘alla yeri qisqartirilib, oziq-ovqat mahsulotlari uchun ajratildi. 160 ming gektar yangi bog‘ va tokzor barpo etildi, eskirgan 107 ming gektari yangilandi. 1 milliard dollarlik 1 ming 500 ta oziq-ovqat loyihasi ishga tushirildi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar xalqaro miqyosda e‘tirof etilmoqda. Shu oyda O‘zbekiston BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti — FAO Kengashi a‘zoliciga saylandi. Bu — milliy va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surish, yangi loyihalar mablag‘ jalb qilish uchun katta imkoniyat.

Mahsulotlarimiz tabiiy va shirin bo‘lgani uchun chet ellarda juda qadrlanadi. Tashqi bozorlarda “O‘zbekistonda yetishtirilgan” degan brend shakllangan. Ayniqsa, quritilgan olxo‘ri va o‘rik, shaftoli, mayiz, gilos, dukkakli mahsulotlar eksporti bo‘yicha yurtimiz dunyoda yuqori o‘rinlarda turadi.

Joriy yilning 6 oyida oziq-ovqat eksporti 44 foiz o‘tib, 1 milliard 326 million dollar bo‘ldi. Eksport geografiasini 16 ta davlatga ko‘paytdi.

Shu bilan birga, dunyodagi vaziyat qaltis bo‘lib boryapti. Ob-havo inijliklari ko‘payib, odatiy holga aylanyapti. Bunday sharoitda har bir eksport bozori o‘ta muhim.

Lekin hamma joyda ham imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. Masalan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston oziq-ovqat mahsulotlari eksportining sur‘ati bo‘yicha boshqa hududlardan ortda qolgan. Navoiy viloyati esa o‘tgan yilgi ko‘rsatkichlariga ham yetmagan. 21 ta tumanda eksport o‘tgan yilga nisbatan 70 foizga ham bormagan.

Yoki bu yilgi meva-sabzavot eksportining 80 foizi faqatgina 5 ta davlatga bo‘lgan. Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Yaponiya, Hindiston, Qatar kabi talab yuqori o‘lkalarga eksportimiz kam. Xorijdagi elchixona va konsullxonalarning bu boradagi o‘rni sezilmayotgani, savdo maslahatchilarining faoliyati sust ekani qayd etildi.

Yig‘ilishda shu kabi kamchiliklar tahlil qilinib, qishloq xo‘jaligida samaradorlik va

eksportni oshirish chora-tadbirlari belgilandi. Bu iqtisodiy xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishi ekani ta’kidlandi. Shu bois, ob-havo va sharoitga moslashib, issiq va sovuqqa, suvsizlikka chidamli mahsulotlar yetishtirishga o‘tish zarurligi aytiladi.

Hududlar kesimidagi tahlillar asosida eksport bo‘yicha yangi zaxira va imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Soha mutasaddilari haligacha eskicha ishlayotgani oqibatida o‘tgan yili meva-sabzavot eksportining 75 foizi may-oktabrga, ya‘ni jahon bozori mahsulotga to‘yingan davrga to‘g‘ri kelgan. Qimmatroq sotish va muntazam yetkazib berish uchun esa qayta ishlashni rivojlantirish kerak.

Masalan, ilg‘or tadbirkorlar olchani “shok” usulida muzlatib, qishda sotishni boshlagan. Yurtimizda yetishmagani uchun qo‘shni davlatlardan olib kelib, reeksport ham qilgan. Shulardan kelib chiqib, dala chetida eksportbop mahsulotlar, xususan, olchani ko‘paytirish zarurligi aytiladi.

Bu yil hududlarda 16 ta zamonaviy qadoqlash korxonasi ishga tushdi. Lekin bu hali yetarli emas. Eksportga ketayotgan meva-sabzavotning 18 foizi zamonaviy qadoqlanyapti, xolos. Shuning uchun yil yakunigacha yana 15 ta korxonani ishga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Eng katta eksport zaxiralarimizdan biri — dukkakli mahsulotlar. Har yili 450 million dollarlik loviya, mosh, tariq va no‘xat eksport qilinaypti. Lekin ishchi kuchi yetishmagani uchun hosilning 30 foizi to‘kilib, isrof bo‘lyapti, katta miqdorda eksport imkoniyati boy berilyapti.

Rivojlangan mamlakatlarda fermerlar dukkakli ekinlarni maxsus kombaynlarda yig‘ishtiradi. Shu bois, Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasidan bunday texnikalarga 15 foizgacha subsidiya berish belgilandi. Kredit stavkasining 10 foizdan oshgan qismi ham qoplab beriladi.

Shuningdek, eksportchilarga tashish xarajatlarini qisqartirish uchun bojxona rejimida qayta ishlangan mahsulotni istalgan postdan eksport qilish imkoni beriladi.

Bugungi kunda yangi bog‘lar barpo qilish va eskilarini yangilash uchun 350 million dona

serhosil va eksportbop meva ko‘chatlariga ehtiyoj bor. 16 ta tumanda tashkil etilgan “Agrostar” kompaniyalari shu maqsadga qaratilgan. Ular ishni, avvalo, shundan — urug‘, ko‘chat va o‘g‘itdan boshlashi kerakligi ta’kidlandi.

Shu bois, “Agrostar” kompaniyalari uchun “in vitro” laboratoriyalari, mazkur tumanlarda saqlash, qadoqlash, saralash va qayta ishlashni o‘z ichiga olgan zamonaviy agromajmualar barpo etish bo‘yicha topshiriq berildi.

Yurtimizda 5 ming 100 gektar issiqxonalar bo‘lib, so‘nggi yetti yilda ularda yetishtiriladigan mahsulot hajmi 110 ming tonnadan 546 ming tonnaga ko‘paygan.

Lekin tadbirkorlar kredit yuki og‘irligi, o‘g‘it narxi qimmatligi, uzluksiz gaz ta‘minoti yo‘qligi sababli qiyinchilikka uchrarmoqda. Xususan, 600 gektardan ortiq maydondagi issiqxona faoliyatini to‘xtatgan, 128 gektari qarzdorlik sababli bank tasarrufiga o‘tgan.

Shu bois, issiqxona xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash choralari belgilandi. Endilikda ichki bozor bilan birga eksportga ham mahsulot yetishtirish majburiyatini olgan, tabiiy gazda ishlaydigan issiqxonalarga qishki mavsumda gaz kafolatli hajmda beriladi. Ko‘mir yoki boshqa muqobil yoqilg‘iga o‘tgan hamda eksport majburiyatini olgan issiqxonalarga ham tabiiy gazga qaytish imkoni yaratiladi.

Aylanma mablag‘ yetarli bo‘lishi uchun oldindan to‘lov oktyabr-mart oylariga 50 foiz qilib belgilanadi. Bunda issiqxonalar gaz korxonalari bilan 1-oktabrgacha shartnoma imzolaydi.

Ko‘mir yoki boshqa muqobil istitish tizimiga o‘tgan issiqxonalarga ajratilgan kredit muddati uzaytiriladi. Issiqlik nasoslari texnologiyasi asosida issiqxona tashkil qilganlarga xarajatlarining 20 foizgacha qismi, bu ishlar kredit hisobidan bo‘lsa, kredit stavkasining 4 foizi qoplab beriladi.

Yana bir yangilik — bundan buyon issiqxonalar, toifasidan qat‘i nazar, yer solig‘ini qishloq xo‘jaligi yerlari stavkasida to‘laydi. 2028-yilga qadar issiqxona ishchilari uchun

ijtimoiy soliq stavkasi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi.

Soliq qo‘mitasiga issiqxonalardan qisqartirilgan gaz qaysi sohalarga yo‘naltirilgani va ularning samaradorligini tahlil qilish vazifasi topshirildi. Agar u tarmoqda qo‘shilgan qiymat kam bo‘lsa, gaz issiqxonalarga yo‘naltiriladi.

Ekologik vaziyatni hisobga olgan holda, Toshkent viloyatidagi issiqxonalar faoliyatining havo sifatiga salbiy ta‘siri bilan bog‘liq muammolarni uzil-kesil hal qilish vazifasi qo‘yildi.

Hozirgacha 224 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingani yaxshi samara berdi. Buning natijasida 420 million kub metr suv iqtisod qilinib, qo‘shimcha 65 ming gektarda meva-sabzavot yetishtirish imkoniyati yaratildi. Buning uchun o‘tgan yili 2,6 trillion so‘m, joriy yil esa 1,2 trillion so‘m sarflandi.

Yil yakunigacha yana 10 ming gektarda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orishni yo‘lga qo‘yish, 200 ming gektarni lazerli tekislash rejalashtirilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga buning uchun 500 milliard so‘m mablag‘ ajratish, kelasi yil dasturi uchun 2 trillion so‘m resurs shakllantirish topshirildi.

Ma‘lumki, yaqinda dala chetiga ekin ekish, kooperatsiyalar bo‘yicha qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, Suv kodeksining qabul qilingani suv tanqisligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu ishlarni davom ettirib, qishloq xo‘jaligida daromadni oshirish, eksportni rag‘batlantirish, ilg‘or standartlarni joriy etish bo‘yicha ham qonunchilikni mustahkamlash maqsadga muvofiq ekani ta’kidlandi.

Hukumatga eksportchi, issiqxonachi va meva-sabzavot yetishtiruvchilar bilan doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yib, davlat idoralariga bog‘liq barcha muammolarini aniqlash, ularni joyida hal qilib borish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda tadbirkorlarning namunali tajribalari ko‘rib chiqildi, mutasaddilarning axboroti eshitildi.

O‘ZA

ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI AHOLINING ERTANGI KUNGA ISHONCHINI OSHIRMOQDA

Davlatimiz rahbariga Samarqand viloyatidagi islohotlar natijadorligi va yangi rejalar yuzasidan axborot berildi.

Samarqand aholi soni va o‘sishi bo‘yicha respublikamizda eng yirik hudud hisoblanadi. Bu yangi uy-joylar, infratuzilma, ish o‘rni, ta‘lim va tibbiyotga talab oshadi degani. So‘nggi sakkiz yilda viloyatda 1 ming 132 ta ko‘p qavatli uy qurilib, 56 ming oilaning turmush sharoiti yaxshilangan. Maktabgacha ta‘lim qamrovi 21 foizdan 73 foizga, oliy ta‘limda 10 foizdan 45 foizga yetgan.

Iqtisodiyotda to‘qimachilik, metallurgiya, elektr texnikasi, qurilish materiallari, turizm jadal rivojlanmoqda. Bunyodkorlik, yirik loyihalar va yuqori daromadli ish o‘rinlari aholining ertangi kunga ishonchini oshirmoqda.

Viloyatda kambag‘allik darajasi yil boshidan beri 7,5 foizdan 6,4 foizga kamaygan. Yil yakunigacha 150 ming odamni ishga joylab, 90 ming aholini kambag‘allikdan chiqarish maqsad qilingan.

O‘tgan sakkiz yilda hududda sanoat mahsulotlari 1,7 barobar o‘tib, hozirda 45 trillion so‘mdan oshgan. Lekin bu natijalarning 37 foizi Samarqand shahriga, 23 foizi Jomboy, Samarqand va Urgut tumanlariga to‘g‘ri keladi. Qo‘shrabot, Payariq va Nuroboddagi sanoat nisbatan rivojlanmagan.

Davlatimiz rahbarining tashabbusiga muvofiq, Samarqand viloyatida ham “Islohotlar shtabi”

tuzildi. Taqdimotda tadbirkorlarning takliflari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar haqida axborot berildi.

Masalan, Nurobod tumanida 115 gektar maydonda maxsus sanoat zonasi tashkil qilish taklif etilmoqda. U yerda 472 million dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 1 ming 200 ta ish o‘rni yaratiladi. Qo‘shrabot tumanida xitoylik investorming 40 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyasi hisobiga granit toshini qazib olish va qayta ishlash mo‘ljallangan.

Bulung‘urlik tadbirkor “in vitro” laboratoriya tashkil etib, kartoshka urug‘i bo‘yicha brend yaratishga kirishgan. Tumanda 100 million dollarlik biofarmatsevtika korxonasini ishga tushirish ham rejalashtirilgan.

Umuman, viloyatda 1 milliard 200 million dollarlik 14 ta yangi loyiha shakllantirilgan. Ularning natijasida 12 ming ish o‘rni, 82 million dollarlik eksport imkoniyati ochilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz bu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlab, loyihalarni jadallashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Har bir tuman-shaharning investitsion jozibadorligi va eksport imkoniyatlarini bir maromda oshirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

Xalqlar do‘stligi

XALQPARVARLIK

QUYOSHIDAN TAFT OLIB

QALBLAR QO‘R, KO‘NGILLAR

SURURGA TO‘LMOQDA

Do‘stlik — qudratli kuch. Hamjihatlik, totuvlik, bag‘rikenglik bilan yurt obod. Bugun o‘zaro milliy va etnik nizolar, diniy, hududiy kelishmovchiliklar kuchaygan beqaror dunyoni qurol yoki kuch emas, insonlar, millatlar, mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlik saqlab qolishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, davlatimiz rahbarining faqat yon qo‘shnilar emas, global miqyosda o‘zaro ishonchli aloqalarni, hamkorlikni rivojlantirishda uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati ko‘plab xalqlar bilan do‘stlik rishtalari mustahkamlanishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi asosida Millatlararo munosabatlar va xorijdagi

▶ Davomi 2-betda

“SEA BREEZE UZBEKISTAN” –

BARQAROR EKOTURIZM RAMZI

CHORVOQ EKOLOGIYASINI ASRAB QOLISHNING MUHIM OMILI

Mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, zamon talablariga mos infratuzilma yaratish borasida keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2024-yilda 2017-yilga nisbatan ishga tushirilgan investitsiya loyihalari qiymati qariyb 8 barobarga, ish o‘rinlari soni esa 2,6 barobarga oshdi. Umuman, so‘nggi 8 yil mobaynida investitsiya dasturlari doirasida qariyb 100 milliard dollarlik 96 mingdan ziyod loyiha ishga tushirilib, 1,8 millionta yangi ish o‘rni yaratildi.

Bu bir qarashda oddiy raqamlar, siz bizga hech bir daxli yo‘qdek go‘yo. Aslida, har bir raqam, har bir loyiha ortida yuzlab, minglab yangi ish o‘rinlari, demakki, bir necha million fucliy yurtodsharimizning daromadli mehnat bilan band bo‘lgani turganini, uning ortidan shuncha oilalarga farovonlik inayotgani, orzu-umidlari ushlayotgani, asosiysi, mamlakatimiz

iqtisodiyoti barqaror taraqqiy etayotganini inobatga olsak, ushbu natija nechog‘liq katta ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas. Ayniqsa, bu kabi yutuqlarga O‘zbekistonning “yashil” taraqqiyot yo‘li asos bo‘layotgani ekologiya sohasi mas‘uli sifatida meni behad quvontiradi.

▶ Davomi 3-betda

XALQPARVARLIK QUIYOSHIDAN TAFT OLIB QALBLAR QO‘R, KO‘NGILLAR SURURGA TO‘LMOQDA



Boshlanishi 1-betda

Kecha festival doirasida “Umummilliy hamjihatlikni mustahkamlash — yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim asosi” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Poytaxtimiz mezbonlik qilgan ushbu nufuzli anjumanga senatorlar, deputatlar, milliy-madaniy markazlar faollari, xalqaro tashkilotlar va diplomatik korpus vakillari, ko‘plab xorijiy tashkilotlar olim va ekspertlari, mutaxassislari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari taklif etildi.

Davlatimiz rahbarining Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan bayram tabrigini O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Ruslanbek Davletov o‘qib eshitirdi.

Tabrikda e‘tirof etilganidek, yurtimizda qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan etnik xilma-xillik noyob ijtimoiy hodisa bo‘lib, bugun — yangi O‘zbekiston sharoitida yangicha ma‘no-mazmun va an‘analarga ega bo‘lib borayotgani diqqatga sazovordir. Barchamiz uchun aziz va mo‘tabar bo‘lgan Vatanimiz aynan shu asosda inson qadri va baxti ulug‘lanadigan tom ma‘nodagi tinchlik, do‘stlik va mehr-oqibat diyoriga aylanib bormoqda. O‘z hayoti, taqdirini O‘zbekiston



bilan uzviy bog‘lagan turli millat va elat vakillari yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Tabrikda so‘zga chiqqanlar davlatimiz rahbarining sana munosabati bilan tabrigi xalqimizga o‘zgacha shukuh va ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlagani, mamlakatimizda millatlararo do‘stlikni mustahkamlash borasidagi egzu ishlar yangi mamlarni zabt etishga undayotganini e‘tirof etdi.

Konferensiyada Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi raisi Qahramon Sariyev O‘zbekiston

ahli azaldan bag‘rikengligi, turli millat va elatlar, diniy konfessiya vakillari bilan o‘zaro hamjihatlikda istiqomat qilib kelayotganini ta‘kidladi.

So‘nggi yillarda millatlararo munosabatlar, inson qadriini ulug‘lash, jamiyat hayotini shiddat bilan ravnaq toptirish borasidagi egzu ishlar O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘si va nufuzini tobora yuksaltirmoqda, — dedi qo‘mita raisi.

Xalqlar do‘stligi kuni mamlakatimizda bir kun emas, balki do‘stlik bayrami sifatida bir hafta nishonlanayotgani yurtimizda birdamlik, hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga jamiyat, davlat rivojining asosiy jihati sifatida e‘tibor qaratilayotganini anglatadi.

O‘zbekiston dunyo miqyosida bag‘rikeng yurt sifatida e‘tirof etilishi bejiz emas. Vatanimizda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. 157 ta milliy-madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xalqaro konferensiya ishtirokchilari tomonidan mamlakatimizda millatlararo hamjihatlik, do‘stlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash borasidagi egzu sa‘y-harakatlar yuksak baholandi, bu boradagi egzu ishlar jahonning ko‘plab davlatlari uchun ibrat ekani alohida e‘tirof etildi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



O‘ZBEKONA XARAKTER HIKOYAMDA YAQQOL KO‘RINADI

Touni KRYUGER,
Zaytra.ai onlayn marketing agentligi asoschisi, PraaktisGO ilovasi hammuassisi:

— Namibiya da tug‘ilganman. Bolaligim Qatarda o‘tgan. O‘qish va karyera qilish ortidan Turkiya, Bahrayn, Angliya va Janubiy Afrika da ham bir necha yil yashadim. Xullas, bugungi fe‘l-atvorim turli madaniyatlar qorishmasidan bunyod bo‘ldi — sahro kabi hadsiz sokinlikda, osmono‘par binolar soyasida, turli tilu urf-odatlar ichida hozirgi o‘zligimni topdim. Har bir ko‘cha, har bir muylulishda o‘rganganlarimning tub mohiyati insoniylikda degan xulosaga kelaverdim. Uning asl ko‘rinishini esa andijonlik yigitga turmushga chiqib, O‘zbekistonga kelganimda ko‘rdim, angladim.

asosiy qadriyatlar — tinchlik, o‘zaro hurmat, yaxshi ko‘shnichilik va millatlararo totuvlikni o‘zida aks ettiradi. Ko‘p asrlik bag‘rikenglik va madaniyatlararo mulokat an‘analarga ega yurtda istiqomat qilayotgan men kabi har bir millat va elat vakillari mamlakat taraqqiyotiga — iqtisodiyoti, madaniyati, jamiyat hayotiga munosib hissa qo‘shmoqda. “Do‘stlik” festivali esa xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va ishonchni mustahkamlash, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlovni maqsad qilgan. Millatlararo munosabatlar sohasidagi qizg‘in sa‘y-harakatlarning muvaffaqiyati asosan men kabi boshqa millat vakillarining o‘z madaniyati va urf-odatlarini saqlab qolishiga yaratilgan sharoitlarda ko‘rinadi. Bu esa jamiyatda birdamlik va barqarorlikni ta‘minlaydi.

KO‘P TILLI MADANIY LOYIHALAR — XALQ DIPLOMATIYASINING ENG SAMIMIY IFODASI

Sabiha SAMAR,
“Daryo” internet nashri muxbiri:

— O‘zbekiston hududi qadimdan Buyuk ipak yo‘li markazida joylashgani barchaga ma‘lum. Ushbu yurt turli xalqlar va madaniyatlarining chorahasi sifatida tanilgan. Bu yerda saklar, massagetlar, sug‘diylar va boshqa qadimgi qabilalar yashagan. Keyinchalik arablar, forslar, turklar va mo‘g‘ullar bu hududga o‘z madaniyatini olib keldi. Markaziy Osiyodagi qadimiy shaharlar bo‘lmish Samarqand, Buxoro, Xiva bilim va san‘at markazlari sifatida rivojlandi, bu esa turli millatlarning birgalikda yashashiga zamin yaratdi.

Hindistondan bu yerga kelganimga ko‘p bo‘lmadi, biroq ko‘p narsani tushunishga ulgurdim deya olaman. Kichik xulosam shu bo‘ldi: turli xalqlar, jumladan, o‘zbeklar, qoraqalpqlar, tojiklar, ruslar, koreyslar, tatarlar O‘zbekistonda asrlar osha o‘z qadriyatini saqlab kelgan. Turli e‘tiqodlari odamlarning bir-biriga iliq munosabati insoniy fazilatlarining yagona maqsadga qaratilishi, birlashishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining umumiy xususiyati oilani muqaddas deb bilish, oilaviy ustunlarni saqlashga intilish va mehmondo‘stlik kabi qadriyatlarga asoslangan. Hamma millat o‘z madaniy an‘analari bilan ajralib turadi, biroq barchasi oilaviy qadriyatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu qadriyatlar asosan tarixiy, madaniy va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Tarixiy jihatdan O‘zbekistonda oilalar avlodlari tarjima almashinuvi orqali mustahkamlangan. Oilada katta avlod vakillarining maslahati nafaqat oilaviy, balki ijtimoiy hayotning ham ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. Avlodlararo bog‘liqlik tufayli har bir millatning oilaviy an‘analari madaniyatlararo hamkorlikka hissa qo‘shib kelgan.

E‘tiborga molik jihatlardan yana biri xilma-xillikdir. Yangi O‘zbekistonda “shunchaki birga yashash” holatidan “birgalikda yaratish”, “birgalikda barpo etish” darajasiga ko‘tarilgan, meningcha. Bugun ko‘chalarda, muassasalarda, oliy ta‘lim dargohlarida, madaniyat va san‘at maskanlarida har xil millat vakillari yelkama-yelka turib ishlamoqda. Ularning har biri O‘zbekiston taraqqiyoti o‘zi hayoti, o‘z kelajagi bilan bog‘layapti. Shuningdek, mamlakatda millatlararo totuvlikni ta‘minlash sohasidagi qizg‘in siyosat natijasida har bir etnik guruh o‘z milliy madaniyatini saqlab qolish, rivojlantirish, yoshlarga o‘rgatish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ayniqsa, har yili o‘tkaziladigan do‘stlik bayramlari, milliy madaniyat haftaliklari, ko‘p tilli madaniy loyihalar bu — xalq diplomatiyasining eng samimiy, eng rost ifodasi.



OBYEKTIV ORTIDAGI “UMUMVATAN” TUSHUNCHASI

Nurken TURSUNOV,
frilanser:



— Har yig‘in, har davra uchun issiq choy damlab gurunglashish, eshik qog‘ib kelgan mehmonni e‘zozlash, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish qadriyati qozoq oilalarida ham bor. O‘zbeklar orasida esa bu ishlarining barchasi chin ko‘ngildan qilinadi — shu holat meni doim hayratlantirgan. Videooperatorlikka qiziqishimni shu yerda kasbga aylantirdim. Dastlab kichik-kichik lavhalar, to‘y tasvirlari, keyin reklama roliklarini suratga oldim. Bir necha davlatga tegishli hamda xususiy

telekanallarda samarali ijod qildim. Bugun esa turli katta loyihalarda, mustaqil media jamoalari bilan ishlayapman.

O‘zbekiston shaxsan menga kamera orqali nazar solishning yangi usulini o‘rgatdi. Bu yerdagi odamlarning ko‘zida samimiyat bor. Ilgari hovlidagi yoshi juvonning boshiga ro‘mol bog‘lab, tandirda non yopishi meni bunchalik ilhomlantiradi deb o‘ylamagandim. Shu sabab bu yerda kamera ortida ishlash chinakam zavq beradi.

O‘zbekistonda san‘atga juda katta hurmat, e‘tibor bor. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, o‘rgan yillarda yurtimizda Xalqlar do‘stligi festivallari doirasida o‘tkazilgan davra suhbatlari, ijodiy mulokatlar, turli millat vakillarining kitob ko‘rgazmalari, foto ko‘rgazmalar, xalqaro konferensiya va boshqa madaniy-ma‘rifiy tadbirlar millatlar va elatlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarining mustahkamlanishida yana bir muhim bosqich bo‘ldi.

Bu yurt meni professionalizm qozonida qaynatib, tobladi, o‘stirdi, non berdi. Bo‘z bolaning Qozog‘istondan boshlagan sertuman yo‘li aynan shu yerda ravshan ko‘rindi... Yangi O‘zbekiston — “umumvatan” tushunchasi asosida rivojlanayotgan makon. Bu yerda har kim — o‘zbek ham, qozoq ham, tojik ham, qirg‘iz ham o‘zini bir butun xalqning kichik bo‘lagi deb biladi. Bu esa barchaga birdek baxt, xotirjamlik bag‘ishlaydi.

TABARRUK DIYORIMIZ RIVOJIGA MAS‘ULMIZ

Guldana AVEZDURDIYEVA,
Respublika turkman milliy-madaniy markazi raisi:

— Tinchlik, millatlar o‘rtasidagi ahillik, hamjihatlik ne‘matining bahosi yo‘q. Yurtimizda kechayotgan yangilanish jarayonlarida

millatlararo totuvlik, o‘zaro ahillik va birodarlik, tinchlik g‘oyalari mustahkamlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaraladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan har yili 30-iyulda Xalqlar do‘stligi kuni keng nishonlanadi. Ayni paytda davom etayotgan “Do‘stlik” festivali ham bu boradagi oqilona hamda uzoqni ko‘zlagan siyosatning amaldagi yorqin namunasidir.

Prezidentimizning Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida bu borada bugungi manzara aniq chizib berilgan. Uning mazmun-mohiyati bilan tanishgan inson borki, O‘zbekiston naqadar bag‘rikeng, inson manfaatlari birlamchi ahamiyat kasb etadigan mamlakat ekanini teran anglaydi.

“O‘zbekiston fuqarosi ekanidan faxrlanadigan barcha millat va konfessiyalar vakillari hamda xorijdagi vatandoshlarimizning huquq va manfaatlarini Konstitutsiya va qonunlarimiz talablari asosida hamma joyda qat‘iy himoya qilish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Siz, azizlar Vatanimizning iqtisodiy va ijtimoiy qudratini oshirish, xalqaro miqyosdagi obro‘e‘tiborini yuksaltirish yo‘lida bundan buyon ham fidokorona mehnat qilib, butun kuch-g‘ayratigiz, bilim va tajribangiz, iste‘dod va mahoratingizni, kasbiy va insoniy salohiyatingizni to‘la namoyon etasizlar, deb ishonaman”.

Davlatimiz rahbarining ushbu so‘zlari va ishonchi har birimizni hayajonlantirdi, dillarimizni faxr-iftixorga to‘ldirdi. Bilasizmi, biz, mamlakatimizdagi turli milliy madaniyat markazlari vakillari bir-birimiz bilan doim aloqadamiz, hamkorlikda ko‘plab loyihalarini amalga oshiramiz va bir masalada yakdilmiz: O‘zbekistonda milliy-madaniy markazlarning samarali faoliyati uchun zarur barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan!

O‘zbek va turkman bir daryoning ikki qirg‘og‘ida ahil, inoq yashayotgan xalqlardir. Tarixan bu ikki el doim do‘stona aloqada bo‘lgan, urf-odati, an‘ana va udumi ham

Bugun turli adabiy-madaniy tadbirlar — do‘stlik kechalari, uchrashuvlar, festivallar, konferensiyalar va konsertlar respublikamizning barcha viloyat, shahar va tumanlarida ham bo‘lib o‘tmqda. Ularda markazimiz vakillari ham faollik ko‘rsataypti. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida turli millat vakillari bilan birgalikda bugungi tinch-osuda hayotimizga o‘z hissalari qo‘shgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirildi. Toshkent fotosuratlar uyidagi ko‘rgazmani tomosha qilib, bugungi kunda milliy-madaniy markazlarga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan e‘tibor va g‘amxo‘rlikka yana bir bor guvoh bo‘ldik.

Bu yilgi festivalning o‘ziga xos jihati shundaki, uning doirasiga Qirg‘iz madaniyati kunlari tadbirlari ham kiritilgan. Shu munosabat bilan ushbu mamlakatdan shoir, yozuvchi, san‘atkor va jamoatchilik vakillaridan iborat katta delegatsiya festivalda mehmon sifatida ishtirok etmoqda.

Kecha 30-iyul — Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan tashkil etilgan festival doirasida bo‘lib o‘tgan “Umummilliy hamjihatlikni mustahkamlash — Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim asosi” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdik. Mazkur yirik tadbirda bugun dunyoda kechayotgan murakkab sharoitda o‘zaro hamjihatlik, tinchlik va barqarorlikni asrab-avaylash, bu borada do‘stlik jamiyatlari va milliy-madaniy markazlar roli va ahamiyati, hissasi atroflicha muhokama etildi.

Shuningdek, 29-iyul kuni “Do‘stlik” festivali doirasida milliy-madaniy markazlar pavilyonlarining tantanali ochilishi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz tashabbusi asosida Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitaga tutash hududda barpo etilgan ushbu fayzli pavilyonlar milliy-madaniy markazlar

BARCHAMIZNING UMUMIY YUTUG‘IMIZ

Rahmatilla JABBOROV,
O‘zbekiston qirg‘iz milliy-madaniy markazi raisi:

— O‘zbag‘rida 130 dan ortiq millat va elatni birlashtirgan O‘zbekiston deb atalgan tarixiy makonda shu qutlug‘ zamin farzandlarining biri sifatida azaldan qirg‘iz millati vakillari ham qardosh o‘zbek xalqi bilan bir jonu bir tan bo‘lib, do‘stlik va ishonch rishtalarini buzmay yashab kelmog‘da. Ular ko‘p millatli respublikamizning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy taraqqiyoti yo‘lida faol ishtirok etmoqda hamda jonajon Vatanimizning har tomonlama yuksalishiga baholi qudrat hissasini qo‘shmoqda.

“Barchamiz birgalikda nishonlayotgan bugungi bayram — Xalqlar do‘stligi kuni ham xalqimizning tinchlik, do‘stlik va egzulik g‘oyalari mujassam bo‘lgan boy madaniyati, urf-odat va an‘analari yaqqol namoyish etish uchun yana bir katta imkoniyat ekanini ta‘kidlash lozim.

So‘nggi yillarda qat‘iy siyosiy irodamiz bilan mintoqamizdagi qardosh davlatlar bilan do‘stona aloqalarimiz yangi bosqichga ko‘tarilib, dunyo siyosatida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora va voqelik paydo bo‘lgani barchamizning umumiy yutug‘imiz, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu haqda gapirganda, shu yil mart oyida O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Tojikiston chegaralari o‘zaro tutashgan nuqtada “Do‘stlik” stelasi o‘rnatilgani o‘rtamizdagi yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganidan yana bir yorqin dalolatdir”.

Davlatimiz rahbarining tabrigida keltirilgan ushbu mulohazalardan ham ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston tashabbuslariga yaqin qo‘shni davlatlar ham “labbay” deb javob beryapti. Natijada davlat yetakchilarining o‘zaro inoqligi, do‘stligi odamlar kayfiyatida ham aks etmoqda.

O‘ZBEKISTONDA YARATILGAN SHAROITLARGA HAVAS QILISHADI

Mobil MAMEDOV,
Respublika ozarbayjon milliy-madaniy markazi boshqaruvi raisi:

— Turli millatlarning urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini, tillari bir-biriga o‘xshash, ayrimlari farqlanishi mumkin. Lekin O‘zbekistonda yashab kelayotgan turli millat va elat vakillarining maqsadi bir — tinch, osoyishta, xotirjam, o‘zaro totuv, ahil bo‘lib yashash.

Mamlakatimizda turli millat vakillari emir-erkin istiqomat qilib, o‘z orzu-niyatlarini shu zaminda yashayotgan barcha odamlar bilan, shu aziz Vatan bilan ro‘yobga chiqarmoqda. Ularning o‘zaro ahillik va bag‘rikenglik muhitida yashashi boshqa davlatlar uchun ham namuna bo‘lishga arziydi.

An‘ana va qadriyatlar, til, urf-odatlar asrab qolinishi uchun O‘zbekistonda barcha sharoitlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar milliy-madaniy markazlar faoliyatida yaqqolroq



namoyon bo‘ladi. Markazlar ishi davlatimiz tomonidan to‘liq moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

“Sea Breeze Uzbekistan” loyihasi bu faqat dam olish maskani emas. Bu eskiz yondashuvni oʻzgartirishga chaqiriq, yangi model ekologik, ochiq va uzoq muddatli taklifdir. Bunday tashabbuslar mamlakatning turistik xaritasini oʻzgartirishi va rivojlanishi yoʻlini bir necha oʻn yillikka belgilashi mumkin.



Do'stlik munosabatlari sabab savdo hajmi ham o'sib boryapti. Xususan, 2019-2024-yillarda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash qiymati 1,9 milliondan 20,4 million dollarga oshgan. Birgina 2024-yilning o'zida o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 46,8 foiz, eksport va import hajmi esa 47 foiz o'sdi.

Ayniqsa, Mo'g'uliston bilan chorvachilik yo'nalishidagi hamkorlik yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorlarda go'sht mahsulotlari narxini arzonlashtirishga qaratilgan muhim sa'y-harakatlardan biridir. Gap shundaki, chorvachilik mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan. Bu yo'nalish ayni paytda davlat aholisining 30 foizga yaqinini ish bilan ta'minlagan. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining 11-13 foizini tashkil etadi. 2024-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, Mo'g'ulistonda umumiy chorva soni 57,6 million boshni tashkil qilib, ularning taxminan 85-90 foizi qo'y-echkidan iborat. Mamlakatda asosan qo'yning bayad, xangay, darxad, bayanxongor, echkining esa Kashemir, Gobi va Xovd zotlari parvarishlanadi.

O'tgan yili yurtimizga bayad zotli 7000 bosh qo'y olib kelindi. Endi bu ko'rsatkich yanada oshiriladi. Boisi Prezidentimizning 2025-yil 17-iyuldagi "Mo'g'ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston va Mo'g'uliston o'rtasida 2025-2026-yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohalarida amalga oshiriladigan chora-

Munosabat



tadbirlarning asosiy ko'rsatkichlari belgilangan. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, import qilinadigan mayda shoxli mollar tannarxi oshib ketishining oldini olish maqsadida chorvachilik bilan shug'ullanuvchilarga qator imtiyozlar beriladi. Masalan, 2025-yil 1-avgustdan 2027-yil 31-dekabrga qadar Mo'g'ulistondan mayda shoxli mollarni O'zbekistonga import qilishda (shundan 3 foiz bank marjasi) 5 yil muddatga 2 yillik imtiyozli davr bilan ajratish, tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kredit mablag'i

uchun sug'urta mexanizmidan foydalangan holda mol-mulk garov ta'minotini 50 foizgacha etib belgilashga rozilik berildi.

Yana bir muhim jihati, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining kafilligi asosida bir oy muddatda qaytarish sharti bilan Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga Mo'g'ulistondan mayda shoxli mollarni yetkazib berishda moliyaviy ko'mak ko'rsatish huquqi berildi. Mazkur moliyaviy ko'mak shartnoma asosida mayda shoxli mollarni olib kelishda mablag'lar taqchilligining oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, yaylovlardan samarali foydalanish va muhofaza qilish, qorako'l chilik, teri va jun sanoati sohalarini yanada rivojlantirish choralari ham ko'riladi. Buning uchun respublika komissiyasi qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari yaylov xo'jaliklari ixtiyoridagi yerlar Mo'g'ulistondan mayda shoxli mollarni O'zbekistonga kamida 1000 bosh import qilgan tadbirkorlik subyektlariga naslchilik va seleksiya ishlarini rivojlantirish orqali import qilingan mayda shoxli mollarning bosh sonini ko'paytirib borish hamda yaylovlarda izen, teresken, quyrovuq, kamforosma, cho'g'on, erkak o't, oq (qora) saksovl kabi ozuqabop o'simliklar ekilishi sharti bilan to'g'ridan to'g'ri ijaraga beriladi.

Umuman, chorvachilik yo'nalishida Mo'g'uliston bilan hamkorlik yurtimizga chorva mollari importini oshirish barobarida naslchilikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Buning uchun Mo'g'ulistondan 100 ming bosh mayda shoxli molni olib kelish va mahalliy sharoitda naslchilik-seleksiya ishlarini yordamida ko'paytirish orqali 2029-yil yakuniga qadar chorva sonini 1 million boshga yetkazish reja qilingan. Bu, o'z navbatida, bozorlardagi to'kinlik, narx-navo barqarorligi, aholi farovonligiga xizmat qiladi.



QORAQALPOG'ISTONNING "QIRQQIZOBOD"IDAGI O'ZGARISHLAR OTALARNI UYGA QAYTARIB, BOLALARNI BILIM OLISHGA RAG'BATLANTIRMOQDA

Qishloqning go'zal tabiatidan bahramand bo'lgan, ilhom olgan inson qalbidan chiqqan satrlar chiroyli qo'shiqlarga aylanadi. Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a tumanidagi "Qirqqizobod" ovul fuqarolar yig'ini tuman markazidan 15 chaqirim uzoqda joylashgan. Shunday bo'lsa-da, OFY kutubxonasida berilib mutolaa qilayotgan biri 4-, ikkinchisi 5-sinf o'quvchilari meni hayratga soldi.

Hududdagi 16-maktabning 4-sinf o'quvchisi Yahyobek Alisherov ikki yilda 124 ta kitobni o'qib tugatibdi. 69-maktabning 5-sinf o'quvchisi Abror Satimov ham bir qancha etaklar to'plamini o'qib chiqibdi. Ular yozgi ta'tilda bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida mahalla kutubxonasidan foydalanar ekan.

Taajjublanib, kutubxonachi Gulzira Usenovaga yuzlangandim, u bolalar o'qigan kitoblarni yo'yxatini ko'rsatdi. Uni ko'rgach, o'quvchilarning kitobsevarligiga to'liq ishonch hosil qildim. O'vulning bolalari o'z-o'zidan kitobxon bo'lib qolgani yo'q. Ota-onalari hayotdan rozi bo'lib, ertasidan ko'ngli to'q bo'lgani uchun bolalarini kitob o'qishga rag'batlantirmoqda. Bu esa hududning obodligi, aholi farovonligi bilan bog'liq.

Keyingi yillarda "Qirqqizobod" ovul fuqarolar yig'ini ahlining turmush sifatini oshirish, hududni obod qilish, infratuzilmani yaxshilash borasidagi keng ko'lamli ishlar aytga arzigulik.

— Oldin ovulimizda ishsizlik ko'p edi. Tuzukroq ish bo'lmagani bois, ko'p ovuldoshlarimiz xorijga borib, ishlashga majbur edi, — deydi "Qirqqizobod" ovul fuqarolar yig'ini raisi Madamin Rahmonov. — Hozir ovulimizda 6550 kishi yashaydi. Ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. So'nggi 7-8 yilda hududimiz juda tez sur'atda o'zgarayapti. Ana shu yangilanishlar natijasida bizda ham tadbirkorlar paydo bo'la boshladi. Hozir

tufayli ishga chiqa olmaydi. Mahalla oqsoqoli tavsiyasi bilan Nazokat uyida o'yinchoqlar yig'ish bilan shug'ullanib kelmogda.

— Mahallamiz uchun juda yaxshi o'zgarish bo'ldi. Tadbirkor o'yinchoqlarni yig'ish uchun uyimizga olib kelib beradi. Biz ularni yig'ib, sotuvga tayyor qilgach, o'zlari kelib, olib ketadi. Uydan uzoqqa bormay, bemaol ishlamaymiz. Shu yil fevralda ish boshlagan edim. Oyiga 4-5 million so'm daromad topayman, — deydi Nazokat Ibraimova. — Turmush o'rtog'im chet elda. Endi uni ham qishloqqa qaytishga undayapman. Shu yerda ham ish topilayapti axir.

Navbatdagi manzilizm Hunarmandlar markazi bo'ldi. Tadbirkor Madiyor Jumaboyev temirdan g'di yasaydi.

— Oldin xorijda ishlaganman. Bugun hunarim tufayli ovulda mehnat qilyapman. Mahalla oqsoqoli qo'limizdan ish kelishini bilib, sex ochishimga ko'maklashdi, — deydi Madiyor Jumaboyev. — Hozircha 3 kishini ishli qildim. Ular bilan birga buyurtma asosida temirdan yasaladigan barcha jihozlarni tayyorlab beryapmiz.

Inomjon Masharipov 13 yildan buyon ota kasbini davom ettirib, yog'ochdan deraza, eshik va har xil mebellar yasaydi. U 5 nafar yurtdoshimizning bandligini ta'minlagan. Hunarmand dastlab 50 million so'mlik imtiyozli kredit olgan edi. Keyin 100 va 150 million so'mlik imtiyozli kredit olib, faoliyatini kengaytirdi. Qudiyar Karimqulov

TIKANSIZ MAYMUNJON YETISHTIRISH — BRENDGA AYLANISHI MUMKIN BO'LGAN YANGI YO'NALISH

U-bu deymiz-ku, bugungi kunda qishloqlarda ham odamlar ancha zamonaviylashib, aksariyati innovatsiyalarga hamohang yashaydigan bo'lib ketdi. Xususan, dehqonchilik borasida ham. Avvalgidek 5-6 sotixli tomorqalarga makkajo'xori, beda ekib qo'yib, yerni nomiga band qilayotganlar endi kam. Tuproqni bebaho ne'mat, boylik sanab, issiqxona yaratayotgan, biogumus tayyorlayotgan, ko'chat yetishtirib sotayotgan, umuman, tomorqaning har qarichidan daromad olayotganlar ko'payib boryapti. Ayniqsa, kanalu ariqlar bo'yida o'ralashib o'sadigan yovvoyi maymunjonni madaniylashtirib, allaqachon o'z mijozlarini topgan xonadonlar e'tiborni tortadi.



uni kengroq tadqiq etib, ommalashtirishga kirishdik. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan mablag' ajratilguniga qadar tor doirada ishlab, o'simlikning morfologik, fiziologik, kimyoviy tarkibini o'rgangan bo'lsak, hozir alohida plantatsiyamiz bor, — deydi Noila.

Tadqiqotchiga ko'ra, bu oddiy tashabbus emas, fermer xo'jaliklari daromadini ko'paytirish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish, eng muhimi, O'zbekiston brendiga aylanishi mumkin bo'lgan yangi yo'nalishdir.

Kichik plantatsiyada avvaliga tikansiz maymunjonning 2 navi bilan ish boshlagan tadqiqotchi bugun 9 navi ustida ishlayapti. Rossiyadan olib kelingan 3 turdagi maymunjon Samarqandning iqlim sharoitiga juda mos keldi. Qurg'oqchilikka chidamli, mehnati ham oson. 1 sotix yerga 2000 tup ko'chat ekish mumkin. 1 tup o'simlik 10-12 kilo hosil berishidan kelib chiqsach, bir mavsumda 20 tonnagacha meva olish mumkin. O'sish xususiyatiga ko'ra, maymunjonlar uch turda, ba'zilar yerga yoyilib, ba'zilar bir oz ko'tarilgach keyin pastlab, Rossiyadan keltirilgan navlar esa tik o'sadi. Hovlisida landshaft dizayn yaratmoqchi bo'lganlarga ayni shu nav tavsiya qilinadi. Sotuv uchun esa "Jumbo" navi afzalroq, tabiiy xususiyatini uzoq saqlaydi. "Karaka Black" esa uzibiq yeyish uchun ayni tanlov, mevalari yumshoq va katta-katta. Xullas, har bir navning o'ziga yarasha xususiyati bor. Iste'molchining xohishiga qarab tavsiya qilinaveradi.

Noilaning aytishicha, plantatsiyadan yoz bo'y meva uzilmaydi, 10-12 martagacha terib olish mumkin. Mevalar markaziy savdo do'konlari va mahalliy bozorlarda sotilayapti. Supermarketlarga qadoqlangan, xaridorgir holatda tayyorlab beriladi. Murabbo qilmoqchi bo'lganlar esa kilolab, chelaklarda

olib ketadi. Shuning uchun samarqandlik mirishkorlar, bog'bonlar yangilik ustida qiziqib ishlayapti. Noilaga oila a'zolari yaqin ko'makchi. Maymunjonlarni tomchilatib sug'orish usuli yo'lga qo'yilgan. Yovvoyi holatda o'rmonlarda, tog' etaklarida o'sadigan tansiq mevaga o'shanday muhit yaratish uchun yondama qilib makkajo'xori ekilgan. Hosilni to'liq yig'ib olishga qulaylik bo'lishi uchun ko'chatlar tirgaklarga bog'lab chiqildi. Ko'chatlarni ko'paytirish uchun kerakli uskunarlar ham yetarli. Kelayotgan foydaga yangi texnika sotib olib, loyihani yanada kengaytirish maqsad qilingan. Samarqand viloyati va boshqa hududlardagi fermerlarga maymunjon ko'chatlarini 25-50 ming so'mdan yetkazib berish ko'zda tutilmoqda. Bunday tajriba plantatsiyalari 8-10 tonnagacha hosil berishi barobarida ayollar va yoshlarga daromadli bandlik manbai ham bo'la olishi o'rganildi.

Shu o'rinda aytish joizki, keyingi yillarda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan startap loyihalarni yuzaga chiqarishga katta e'tibor qaratilayapti. Masalan, joriy yilning o'zida Samarqand davlat universitetining 4 ta loyihasi moliyalashtirildi. Ularning 2 tasi ishlab chiqarish, 2 tasi qishloq xo'jaligi bo'yicha. Aslida, hammasi istiqbolli bo'lgan loyihalarimiz eng dolzarblari tezkor moliyalashtirilayapti. Rivojlangan davlatlar bilan qo'shma tanlovlar e'lon qilinayapti. Buning natijasida esa Noila Jumaqulova singari izlanuvchan yoshlarga keng yo'l ochilayotgani quvonarli.

— Asosiy maqsadim — bu kichik loyihani milliy darajadagi rezavor mevalar klasteriga aylantirish. Nasib qilsa, buning uchun har bir tumanida intensiv maymunjon plantatsiyalari tashkil etish, tajriba va o'quv markazlari orqali yosh fermerlarni tayyorlash, mahsulotlarni qayta ishlash hamda eksportga tayyorlash tizimini yaratish, ko'chat yetishtirishda ayollar kooperatsiyasini tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqamiz. Moddiy-texnik baza bilan mustahkamlanadigan bo'lsa, O'zbekistonning eksport reytingini oshiruvchi, qishloqda daromad manbaini ko'paytiruvchi, sog'lom turmush tarzini tag'ib etuvchi muhim strategik loyiha bo'lib xizmat qiladi, — deya istiqbolidagi rejalarni ochiqdagi Noila.

Tadqiqotchining ustozlari har bir agrojarayonni puxta kuzatib, ilmiy natijalarni aniq va tahliliy fikrlar bilan boyitgan yetuk izlanuvchilar, fidoyilar, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday ustozlar, ularga xayrixohlar birlashib, bu kabi tashabbuslarni keng miqyosda qo'llab-quvvatlash, nafaqat bir viloyat, balki butun respublikada yangi agroklasterlar, eksportbo mahsulotlar, bugun o'z uyida, oilasi bag'rida yashab, ishlab kelayotganini aytib, xursandligini biz bilan baham ko'rdi.

Nazokat Ibraimova esa uch farzandning onasi. Bolalar tabiiyasi bilan mashg'ulligi



ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni ko'payib bormoqda. Muhimi, chet elda yurgan yigit-qizlar ham qishloq'imizga qaytib kelyapti.

Mahallani kezib o'zgarishlar bilan tanishar ekanmiz, uning har bir ko'chasida ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish shoxobchalariga duch keldik. Bozorini aytmaymizmi! Rastalar noz-ne'mat bilan to'lgan, to'kinlik. Aholi tomorqada mehr bilan ishlagani bois, meva-cheva arzon. Bu ham yurtdoshlarimiz kayfiyatiga jiboyi ta'sir qiladi. Axir kimdir imkoniyatlardan foydalanib, bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanayapti. Boshqalar yetishtirilgan mahsulotni qulay narxda sotib olmoqda. Hatto qo'shni qishloq va tumanlardagi aholi ham kelib, ushbu bozorlardan xarid qilib ketadi.

Ovul oqsoqoli bizni o'yinchoq ishlab chiqariladigan sexga boshlab bordi. Bir paytlar shunday oshi ovullarda ishlab chiqarish sexlari bo'lishi xayolimizga kelmadi. Mana endi qirqqizobodlik tadbirkor Xitoydan uskunalar keltirib o'matibdi. Sexga kirib borganimizda dastgohlar bolalar uchun o'yinchoq ishlab chiqarayotgan ekan. Quvonarlisi, shu orqali tadbirkor bir necha yurtdoshimizni ishli qilgan.

— Tadbirkorlik faoliyatimizni 2 milliard 500 million so'mlik kredit mablag'i hisobidan yuritaymiz. Oson ish hech qayerda yo'q, biz ham avvaliga sinovlardan o'tdik. Chunki tadbirkorlik tavakkalchilikka asoslangan, mehnati bilan qadrlidi, — deydi G'ulomjon Mambetov. — Sexning o'zida 7 kishi ish bilan ta'minlangan. Yana 40 kishi uyida kasanachilik asosida ishlaydi. Biz o'yinchoqlarni yig'ish uchun uylarga olib borib beramiz. Hududimizdagi nogironligi bo'lgan, uyida bola tabiiyasi bilan shug'ullanayotgan ayollarga yaxshi maosh ham to'layapmiz. Mahsulotlarimiz esa mahalliy bozor bilan birga Rossiya va Qirg'izistonga eksport qilinadi.

Oxunjon Kenjayev sexda ishlayotgan xodimlardir. U oldin tirikchilik uchun chet elda mehnat qilgani, bugun o'z uyida, oilasi bag'rida yashab, ishlab kelayotganini aytib, xursandligini biz bilan baham ko'rdi.

Nazokat Ibraimova esa uch farzandning onasi. Bolalar tabiiyasi bilan mashg'ulligi

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Hamkorlik

Prezidentimizning iyul oyi boshida Ozarbayjonga tashrifi nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, ikki davlat o‘rtasida geologiya sohasidagi hamkorlik o‘zaro manfaatlarga mosligidan tashqari butun Markaziy Osiyoda barqaror resurs siyosatini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.



Sunnatilla G‘OYIBNAZAROV,
Toshkent davlat texnika
universiteti dekani,
texnika fanlari doktori

O‘zaro hamkorlik asosidagi geologiya-qidiruv ishlari kelgusida yangi konlarni aniqlash, iqtisodiy o‘rnatishni rag‘batlantirish va ilmiy-texnologik taraqqiyotni kuchaytirishga turki bo‘ladi. SOCAR (Azerbaijan Republic State Oil Company) kompaniyasi bilan Ustyurt mintaqasida neft va gaz qidiruvini amalga oshirish bo‘yicha kelishuv mamlakatimizning energetika infratuzilmasini rivojlantirishda muhim qadam hisoblanadi.

Asosiy yo‘nalishlar

O‘zbekiston va Ozarbayjon so‘nggi yillarda mineral resurslarni qidirish va qazib chiqarish sohasidagi munosabatlarni faol rivojlantirmoqda. Har ikki davlatda ham boy mineral resurs bazasi mavjud bo‘lib, geologiya sohasidagi bilim va texnologiyalar almashinuvi katta ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik qidiruv ishlari samaradorligini

oshirish va sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini yaratadi.

Mamlakatimizda geologiya sohasini rivojlantirish, kon qidiruv ishlarni zamonaviy texnologiyalar asosida bajarish, yangi mineral resurs bazalarini shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik, xususan, geologiya sohasida katta tajribaga ega davlatlar bilan qo‘shma loyihalar muhim. Shu ma‘noda, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida geologiya sohasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilayotgani diqqatga sazovor.

Texnik imkoniyat va texnologiyalar almashinuvi

O‘zbekistonda Ozarbayjonning SOCAR va AzerGold kabi yetakchi kompaniyalari bilan qo‘shma korxonalar tashkil etish, geologiya-qidiruv va konlarni ishga tushirish sohasida to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya jalb etish muhim strategik yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Ikki davlatning geologiya xizmatlari o‘rtasidagi hamkorlik ma‘lumot almashinuvi bilan cheklanmay, qo‘shma ekspeditsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va kadrlar tayyorlash sohalari ham rivojlantirilmoqda.

SOCAR nafaqat Ozarbayjonning, balki butun Kavkaz mintaqasining eng yirik energetika kompaniyalaridan biri bo‘lib, u geologiya-qidiruv ishlardan tortib, neft va gazni qazib olish, qayta ishlash hamda eksport qilishgacha bo‘lgan to‘liq texnologik zanjirga ega. Bu kompaniyaning chuqur qazish va yuqori bosimli qatlamlar bilan ishlash tajribasi, geofizik tadqiqotlar, seysmologiya hamda burg‘ilash texnologiyalarini qo‘llashdagi ko‘nikmalari, shuningdek, infratuzilma loyihalaridagi salohiyati O‘zbekistonda ilmiy-



texnologik taraqqiyotni rivojlantirishga muhim hissa qo‘shishi mumkin.

O‘zbekistonning neft-gaz sohasidagi istiqbolli Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlari faol hamkorlik uchun alohida imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, Navoiy, Jizzax, va Surxondaryo viloyatlari ham mineral resurslarga boylik bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ushbu hududlarda oltin, mis, uran, flyuorit va polimetallar kabi strategik ahamiyatga ega konlarning yangi zaxiralarni izlash juda dolzarbdir. Ozarbayjon geologlari bilan hamkorlikda ushbu mintaqalarda qidiruv ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bu jarayonda Ozarbayjonning mineral resurslarni izlash va baholash sohasidagi ilg‘or texnologiyalari va ko‘p yillik amaliy tajribasidan

foydalanish ko‘zda tutilgan. Ozarbayjon mutaxassislari tomonidan geofizik tahlillar, yadroviy seysmologiya, sinama olish va mineral tarkibini aniqlashdagi zamonaviy usullardan keng foydalanish nazarda tutilgan. O‘zbekiston tomonidan esa oltin, kumush, mis va boshqa metall zaxiralarni aniqlash uchun geofizik va geokimyoviy usullarni joriy etish borasida ishlarni olib borilmoqda.

Geofizik tadqiqotlarda zamonaviy uskunalar, masofadan zondlash (dronlar, sun‘iy yo‘ldoshlar) texnologiyalari, geoma‘lumotlar bazasini yaratish kabi yangi yo‘nalishlarda hamkorlikni kengaytirish imkoniyati mavjud. Ozarbayjon 3D geofizik modellash va neft qidiruvi sohasidagi innovatsion yechimlarini taqdim etishi mumkin.

Ilmiy salohiyat va kadrlar masalasi ham ustuvor

Geologiya yo‘nalishidagi hamkorlik faqat mineral xomashyo qidiruvi bilan cheklanib qolmayapti. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasida kadrlar tayyorlash, ilmiy izlanishlar va akademik almashinuvi o‘z ichiga olgan keng qamrovli dasturlar shakllanmoqda. Jumladan, Toshkent davlat texnika universiteti hamda Ozarbayjon davlat neft va sanoat universiteti o‘rtasida talabalar va tadqiqotchilarni o‘zaro almashishga qaratilgan hamkorlik dasturi amalga oshirilayapti. Ushbu tashabbus doirasida o‘nlab yosh mutaxassislar geologiya va tog‘-kon ishlari sohasida yuqori malakali professor-o‘qituvchilardan ta‘lim olishi va xalqaro tajribaga ega bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, tomonlar geologiya sohasidagi dolzarb muammolarni birgalikda o‘rganish va qo‘shma ilmiy maqolalar chop etish orqali ikki mamlakatning ilmiy salohiyatini integratsiyalashni maqsad qilgan. Ilmiy hamkorlik doirasida 2026-yilda Toshkent shahrida “Mineral resurslarni o‘rganish: ilmiy yondashuv va innovatsiyalar” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish rejalashtirilgan. Ushbu muvazil tadbir yangi qidiruv ishlari samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini to‘liq namoyon qilishga ko‘maklashadi.

Raqamli texnologiyalar va innovatsiya

Jahon amaliyoti dalolat bermogdaki, geologiya va mineral resurslarni boshqarish sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki qaror qabul

qilish jarayonida aniqlik va ishonch darajasini ham sezilarli yaxshilaydi. Ayniqsa, geoaxborot tizimlari geologik ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil va vizualizatsiya qilishda muhim vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi geologiya sohasidagi hamkorlik doirasida ushbu texnologiyalarni joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslar olg‘a surilmoqda. Xususan, geoaxborot tizimi texnologiyalari yer qari ma‘lumotlarini raqamlashtirish, mineral resurslar xaritalarini yaratish, qidiruv ishlarni loyihalash va istiqbolli hududlarni aniqlashda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekistonda Ozarbayjon tajribasi asosida geologiya-qidiruv ma‘lumotlarini raqamli shaklga o‘tkazish, geoaxborot tizimlari asosida tahlil qilish va ular orqali istiqbolli hududlarni baholash joriy etilmoqda. Bunda “ArcGIS”, “QGIS” va “Surfer” kabi dasturlardan foydalanilayapti. Bu platformalar yordamida katta hajmdagi geoma‘lumotlar tezkor tahlil qilinib, yuqori aniqlikdagi natijaga erishiladi.

2024-yilda SOCARning Boku shahrida joylashgan akademiyasida o‘zbekistonlik 35 geolog zamonaviy GIS kartografiya va ma‘lumotlar tahlili bo‘yicha maxsus treninglarda qatnashdi. Shuningdek, ikki mamlakat mutaxassislari “Kaspiy-Orol geologiyasi” qo‘shma ilmiy loyihasi ustida ishlamoqda. Loyiha Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi mineral konlarning paydo bo‘lish mexanizmini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ayni paytda SOCAR tomonidan ishlab chiqilgan “Smart Exploration” raqamli platformasi O‘zbekistonning beshta strategik kon hududida sinovdan o‘tkazilmoqda. Ushbu tizim geologiya-qidiruv jarayonlarida sarf-xarajatlarni 40 foizgacha qisqartirish va tahlil aniqligini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, 2024-yilda SOCAR tomonidan 7000 metrgacha chuqurlikda burg‘ilashga mo‘ljallangan “DepthMaster-X” seriyasidagi uchta zamonaviy burg‘ilash qurilmasi O‘zbekistonga yetkazib berildi. Bu qurilmalar nafaqat texnik imkoniyatlarni kengaytiradi, balki yuqori texnologik tadqiqotlarni amalga oshirishga turki beradi.

O‘zbekiston va Ozarbayjonning geologiya sohasidagi raqamli hamkorligi ma‘lumotlar almashinuvi yoki tajriba o‘rganishdan tashqari yaqin kelajakda GeoData-Bridge raqamli platformasi orqali geoma‘lumotlarni tizimli va shaffof tarzda birgalikda boshqarishni ham o‘z ichiga oladi.

Ikki davlatning geologiya sohasidagi hamkorligi nafaqat resurslarni izlash, qazib chiqarish, balki ilm-fan, texnologiya va kadrlar salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan. Bu hamkorlik natijasida mineral xomashyo bazasi 30 foiz kengayishi, 2026-yilgacha 5000 dan ziyod yangi ish o‘rni yaratilishi, davlatlarning energetika mustaqilligi mustahkamlanishi kutilmoqda.

O‘zaro ishonch va strategik yondashuv asosida shakllanayotgan bu hamkorlik yaqin kelajakda geologiya sohasidagi mintaqaviy hamkorlikning namunali modeliga aylanishi mumkin.

“DOLZARB 90 KUN” LOYIHASI MAVSUMIY TADBIR EMAS

U YOSHLAR SALOHİYATINI YUKSALTIRISH, IQTIDORLILARNI KASHF ETISH VA JAMIYATNING FAOL QATLAMIGA AYLANTIRISH BORASIDAGI TIZIMLI YONDASHUVDIR



Jamshid SHONAZAROV,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Xayrli tashabbus

Loyiha doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni sog‘lomlashtirish va har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli maqsadli ishlar qilinmoqda. Sport musobaqalari, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi marafonlar, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, teatr va kino kechalari, kitobxonlik aksiyalari yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, ularni ijtimoiy faollikka undashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shahrisabz davlat pedagogika institutida ham ushbu loyiha doirasida yoshlarning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiluvchi o‘nlab tashabbuskor g‘oyalarni amalga oshirilayapti. Institutda ta‘lim olayotgan talabalar bilan bir qatorda uyushmagan yoshlarni ham qamrab olish

maqsadida turli yo‘nalishlardagi to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yildi. Hunarmandlik, amaliy san‘at, musiqqa, sport, xorijiy tillarni o‘qitish kurslari hamda axborot texnologiyalariga oid to‘garaklar muntazam faoliyat yuritmoqda. Ular yoshlarga nafaqat yangi ko‘nikma va bilim berish, balki kasb-hunar o‘rganish, mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

To‘garaklar faqat institut talabalarini emas, balki oliyog‘lar atrofidagi mahalla yoshlari uchun ham foydali bo‘layotgani e‘tiborga moliq. Ayniqsa, talaba yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ijtimoiy

faolligini oshirish va kelajak kasbiga yo‘naltirish borasidagi tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalla yoshlarining san‘at, sport, IT sohaga qiziqishini oshirish, intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida mashg‘ulotlarga institutning tajribali ustoz-murabbiylari jalb etilgan. Shu bilan birga, bu faoliyat orqali yoshlar o‘rtasida ijtimoiy mas‘uliyat hissi, jamoaviylik, milliy qadriyatlarga hurmat va iftixor, vatanga sadoqat kabi fazilatlar ham yuksalmog‘da. Institut va mahalla o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik tufayli ko‘plab



yoshlar o‘ziga munosib yo‘nalishlarni topib, turli tanlov va musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etyapti.

Institutda yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va sportga qiziqishini yanada oshirish maqsadida “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida qator sport va sog‘lomlashtirish musobaqalari hamda tanlovlar tashkil etildi. Ularda faol ishtirok etib, yuqori natijalarga erishganlar qimmatbaho sovg‘alar va pul mukofotlari bilan taqdirlanmoqda.

Shu bilan birga, oliyog‘da kitobxonlik tanlovlari ham keng quloch yoygan. Yoshlarda kitobga qiziqish yuqori. Kitobxonlik haftaliklari, “Badiiy asarlar bilimdoni”, “Eng faol kitobxon talaba” kabi loyihalar orqali yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyati shakllantirilmoqda. Institutda yo‘lga qo‘yilgan “Ziyo ulashib” loyihasi doirasida bugungi kungacha 60 dan ortiq

umumta‘lim maktabi kutubxonalariga homiylik ko‘magida o‘zbek va jahon adabiyotining 7 mingdan ziyod sara namunasi sovg‘a qilindi. Bu esa o‘quvchi yoshlarning dunyoqarashi va ma‘naviy olamini boyitishga xizmat qiladi.

Institut talabalari va professor-o‘qituvchilari maktab o‘quvchilari bilan turli mazmunda uchrashuvlar o‘tkazib, badiiy adabiyotlar yuzasidan ochiq muqolotlar, ijodiy uchrashuvlar, adabiy viktorinalar va “Kitobxonlar klubi” mashg‘ulotlarini tashkil etmoqda. Bunday ezu sa‘y-harakatlar ta‘lim zanjirining barcha bo‘g‘inlarida kitobxonlik muhitini rivojlantirish, yoshlar orasida kitob mutolaasiga qiziqishni kuchaytirish bilan birga ma‘naviy va intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topishida qo‘l keladi.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida talabalar va uyushmagan yoshlar o‘rtasida sport musobaqalaridan tashqari tasviriy san‘at, hunarmandlik va kasbiga yo‘naltiruvchi boshqa sohalarda ham turli tanlov va tadbirlar muntazam tashkil etilyapti.

Shahrisabz davlat pedagogika institutidagi bu tashabbuslar, shubhasiz, nafaqat ta‘lim sifatini oshirish, balki yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, hayotga ijobiy qarashlarini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Eng asosiysi, “Dolzarb 90 kun” yashirin iqtidorlarni yuzaga chiqarib, yangi g‘oyalarni sari undamoqda.

Yaqin kelajakda mazkur loyiha doirasida yana qator yangiliklar va ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Talabalarining o‘zi ham yozg‘i ta‘limi behuda o‘tkazmayapti — ular doimiy yashash joylarida tikuvchilik, pazandalik va xorijiy tillarni o‘rganish kurslariga qatnab, amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlamoqda. Yana ko‘plab talabalar yozg‘i oromgohlarda tabiiyati sifatida faoliyat yuritib, bolalar bilan ishlash tajribasini o‘rtittirmoqda.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi faqat mavsumiy tadbir emas. U yoshlar salohiyatini yuksaltirish, yangi imkoniyatlarini ochish va iqtidorlarini kashf etish, jamiyatning kuchli, intiluvchan, faol qatlamiga aylantirish yo‘lidagi tizimli yondashuvdir. Ushbu tashabbus doirasida tashkil etilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy uchrashuvlar, sport musobaqalari, ijtimoiy loyihalar, debatlar va madaniy tadbirlar, turli ko‘ngilochar dasturlar orqali talabalarining bilim va ko‘nikmalari oshirilmoqda, shaxsiy salohiyati yuzaga chiqarilmoqda.

Loyiha yoshlarning ongi va qalbidagi vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlab, yuksal axloqiy madaniyatga ega, jamoat ishlari faol, mas‘uliyatli shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma‘noda, “Dolzarb 90 kun” bugun yoshlar faolligini oshirayotgan, ezuq maqsadlarga ilhomlantirayotgan keng qamrovli harakatga aylandi, desak ayni haqiqatdir. Bu esa ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya bir butun jarayon sifatida amalga oshirilayotganida ham ko‘rinadi.

Yoz — o‘tmoqda soz



DO‘STLIK, TARBIIYA VA IJODKORLIK MAKTABI

Navbahor tumanidagi “Shabboda” sog‘lomlashtirish oromgohining sport maydoni bugun ham gavjum. Sababi oromgohdagi guruhlar o‘rtasida futbol turniri bo‘lib o‘tmoqda. Yuqori kayfiyat, yoshlik shijoati bilan vaqt maroqli o‘tayoiti. Musobaqada o‘rin olish nisbiy, muhimi ahillik va do‘stlik g‘alabasidir.

Navoiy viloyatidagi yozgi oromgohlarda bolalar ta‘limi ana shunday maroqli va mazmunli o‘tmoqda. Bunda Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasidagi tadbirlar alohida o‘rin tutmoqda. Xususan, o‘quvchilar madaniy, ma‘rifiy va sport tadbirlariga faol jalb qilinayapti. Bu ularning dam olish vaqtini mazmunli o‘tkazish bilan birga shaxsiy rivojlanishi, qobiliyatlarini namoyon qilishda muhim o‘rin tutmoqda.

Albatta, sog‘lomlashtirish oromgohlari shunchaki dam olish maskani emas, balki bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni sog‘lom va faol turmush tarzini o‘rgatish maktabi hamdir. Ushbu oromgohlar orqali yoshlarning bilim va ma‘naviy yetuk shaxslar bo‘lib voyaga yetishiga ham zamin yaratiladi. Bundan tashqari, ular oromgohda yangi do‘stlar topadi, ilm va ijodga muhabbat uyg‘otadigan mashg‘ulotlarda ishtirok etadi.

Navoiy viloyatida joriy yozgi dam olish mavsumida 11 ta stasionar oromgohlarda ta‘lim davomida 15 mingga yaqin o‘quvchini qamrab olish rejalashtirilgan. Ta‘kidlash joiz, “Dolzarb 90 kun” tadbirlariga respublika bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tizimidagi 1239 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktabida kunduzgi oromgohlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ularga 170 mingga yaqin o‘quvchi ixtiyoriy jalb qilinishi rejalashtirilgan. Navoiy viloyatidagi 73 ta umumiy o‘rta ta‘lim maktablari qoshida kunduzgi oromgohlar tashkil etildi. Kunduzgi oromgohlarda mavsum davomida viloyatdagi 5 mingga yaqin o‘quvchi ixtiyoriy ravishda jalb qilinishi belgilangan. Ular o‘z qiziqishlari asosida turli yo‘nalishlardagi to‘garaklarda faol ishtirok etmoqda. Ushbu mavsum davomida umumiy hisobda 19 mingdan ortiq bola oromgohlarga qamrab olinadi.

Oromgohlarda nafaqat dam olish, balki bolalarning aqliy, jismoniy va ijodiy rivojlanishiga xizmat qiladigan ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda, — deydi Bolalar dam olishini va sog‘lomlashtirishini tashkil etish departamenti Navoiy viloyati boshqarmasi mutaxassisi Xurshid Yandashev. — Har bir davrda bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan 12 kunlik namunaviy dastur va “Dolzarb 90 kun” kompleks tadbirlari rejasi mavjud. Shu

asosda yoshlar “Zakovat” intellektual o‘yini, “Ertaklar olamiga sayohat”, “Kitobxonlik — yorqin kelajak kafolati” tanlovlari, “Talent shou” va “Qiziqarli teatr” dasturlari, “Yosh qatqaruvchi” ko‘rgazmalari, turli sport musobaqalari, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari va milliy qadriyatlarga oid bayramlarga jalb qilinmoqda.

Navbahor tumanida joylashgan “Shabboda” sog‘lomlashtirish oromgohi har yili bir necha yuzlab bolalar uchun sevimli maskanga aylanib ulguragan. Tabiatning musaffo bag‘rida joylashgan ushbu oromgoh bolalarning yozgi ta‘limi mazmunli va foydali o‘tkazishi uchun barcha zarur shart-sharoitga ega. Shuningdek, bolalar xavfsizligini ta‘minlash, sog‘lom ovqatlanishni tashkil etish va sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Oromgohimiz har davrda 300 nafar bolani qabul qilish imkoniyatiga ega, — deydi “Shabboda” oromgohi direktori Gulnoz Jo‘raqulova. — Bolalarni sog‘lomlashtirish va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, to‘garaklar va sport musobaqalari orqali vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha mavsum boshida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqqanmiz. Shuningdek, mavsumga tayyorgarlik jarayonida oromgohimizda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda bolalarni xavfsiz dam olish sharoitlari ko‘rilgan. Jarayonda 33 nafar pedagog xodim jalb etilgan. Ular tunu kun bolalar yonida. Oromgohimizda har kuni “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Bugungi kunda viloyatdagi barcha oromgohlarda ushbu loyiha doirasida ishlar olib borilmoqda. Hozirgacha 200 ga yaqin turli tadbirlar tashkil etildi. Ularda faol qatnashgan 300 dan ortiq bola diplom, kitob va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi. Bu esa, albatta, ularda o‘z qobiliyatini namoyon etish, ilmiy va ijodiy intilishiga bo‘lgan ishtiyuqni yanada oshirmoqda.

Bolalar uchun ta‘limda bayram kayfiyatida o‘tayoigan har bir kun ularning yodida qadrlil xotira bo‘lib qolishi tabiiy. Chunki bu oromgohlar faqat dam olish maskani emas, balki do‘stlik, tarbiya, sog‘lom turmush va ijodkorlik maktabi hamdir.

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





U JASORAT, VATANPARVARLIK YO‘LINI TANLADI

Vatan himoyasi yo‘lida, hayot-mamot tanlovida hech ikkilanmasdan jonini fido qilgan jangchilar biz uchun nafaqat qahramon, balki yurtning ozodligi, tinchligi va barqarorligi ramzidir. Ular el-yurtini sevish, himoya qilish va vatanparvarlik bobida bizga namuna bo‘lgan aziz shaxslardir.

Biz ularning jasoratlarini unutmashimiz, xotirasini abadiy saqlashimiz, kelajak avlodga ham ana shu yuksak tuyg‘ularni yetkazishimiz zarur. Chunki har bir yurtimiz farzandi ona vatan himoyasiga hamisha shay turishi, tinchlikni qadrlashi va kerak bo‘lsa, jon fido qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

Harbiy xizmatchi boshqa kasb egalari qaranganda yuksak intizomi, har qanday vaziyatga doim shay turishi bilan farqlanadi. Shu bois, harbiylar uchun kundalik oddiy mashqmi, jangovar harakatmi, birday mas’uliyatli. Ayniqsa, harbiy uchuvchilar uchun buning mutlaqo farqi yo‘q. Shuning uchun uchuvchining faoliyati osmondagi parvoz vaqti bilan o‘lchanadi.

Aviatsiya kapitani Zafar Boymurodov ana shunday vatanparvar uchuvchilardan edi. 2009-yilda Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirib, Mudofaa vazirligining quuruqlikdagi aviatsiya qo‘shinlari harbiy qismida uchuvchi-shurman sifatida xizmat qilishni boshlar ekan, kursantlikda qabul qilgan harbiy qasamyodi oddiy rasmiyatchilik emas, uning hayoti mazmuniga aylanganini yanada teranroq his etgandi. U bir kun murakkab vaziyatga duch kelganida hech ikkilanmay vatan tinchligi yo‘lida jon berishga tayyor bo‘lish kerakligini ham doim his etardi. Shunday ham bo‘ldi, u jangovar topshiriqni bajarayotib halok bo‘lgan.

Zafar Boymurodov boshqarayotgan vertolyot havoda halokatga uchranganda, unda o‘z jonini saqlab qolish



imkoniyati bo‘lgan, ammo jasorat ko‘rsatib, qanday qilib bo‘lsa ham jangovar topshiriqni bajarishni o‘ylagan.

Har qanday aviahalokatdan so‘ng uning sabablari mutaxassislar, ekspertlar tomonidan chuqur o‘rganiladi. Ming metrdan yuqoriroq balandlikda harbiy vertolyot bilan bog‘liq bu hodisani tahlil qilib, texnik yechimini o‘rganib chiqqan aviatsiya mutaxassislari uchuvchi o‘z hayotini saqlab qolishi uchun to‘liq imkoniyati bo‘lgan, ammo u jangovar topshiriqni bajarish uchun bunday yo‘l tutmagan degan xulosaga keldi.

Bo‘lib o‘tgan voqeadan so‘ng bunday fikrni nafaqat ekspertlar, Zafaming do‘stlari, harbiy uchuvchilar ham bildirdi. Chunki ularning har biri bunday vaziyatda shunday yo‘l tutardi. Zafami yaqindan biladigan safdosh do‘stlari voqeaning sabab va oqibatlari haqida gapirib, “Agar u zimmasidagi topshiriqni bajarishni emas, o‘z hayotini ustun qo‘yganda tirik qolishi mumkin bo‘lardir”, deb aytgan.

Chunki uning uchuvchilik tajribasi ham shunga dalolat beradi. Mi-8 va Mi-17IE rusumli vertolyotlarni boshqarishda Zafar qismdagi eng tajribalilardan hisoblangan. U transport vertolyotlarida jami 252 soat parvoz qilgan. Bu parvozlar osmondan sayr emas, balki harbiy o‘quv mashqlari, murakkab jangovar vazifalar edi.

Men kapitan Zafar Boymurodov bilan besh yil davomida Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtida birga tahsil oldim, — deydi iste‘fodagi podpolkovnik Alisher Tursunov. — O‘qishni muvaffaqiyatli tamomlab, keyinchalik ham u bilan birga ishlash nasib etdi. U nafaqat harbiy o‘quvda, balki ish jarayonida ham doimo boshqalar uchun namuna bo‘lib xizmat qildi. O‘zining qat’iy intizomi, mas’uliyatligi va fidoyiligi bilan biz — hamkasblarini har doim ilhomlantirib kelgan.

Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 746. 34972 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.	Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro‘ziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz ko‘chasi, 85-uy O‘za yakuni — 21:20
---	--	--	---	--

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05 Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

MEZON

YANGI O‘ZBEKISTON

Mulohaza

YO‘Q NARSADAN SHOV-SHUV yaratish “san’ati”

Kamoliddin TO‘RAYEV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mayli, endi “aksariyatlar”ni qo‘yib turaylikda, ma‘lum bir maqsad yo‘lida faoliyat yuritayotgan “katta foizli”larning mahsulotlariga nazar tashlab ko‘raylik. Yaqinda ana shunday mediamahsulotlardan biri — kichik dramaga ko‘zim tushdi. “Kelinchak” tor, ko‘ksi ochiq ko‘ylakda boyvachcha erkakning yoniga choy olib keldi va “Choy icking”, dedi noz bilan. Uning har bir qarashi, harakati, so‘zlari va ishvasida maqsadi ayon edi. Erkak ham ko‘cha ko‘rib qo‘yganlardan emasmi, kelinchakdagi moyillikni sezdi, albatta. U mug‘ombirona qarab, ayolning ko‘ylagi chiroyli ekanini, ko‘ylak ichidagi undan ham chiroylligini e‘tirof etdi va shu bilan tezgina til topishib qo‘ya qolishdi. Xo‘sh, nima bo‘pti, bunaqalar ko‘p-ku demoqchimisiz? Bu bugun dunyo bo‘ylab sodir bo‘layotgan va tez urchiyotgan axloqsizliklar oldida “hech nima”, shundaymi?

Bu “hech nima” dramasi o‘rtida millatning juda katta fojiasi namoyon bo‘lmoqda. Axloqsiz erkak — qaynota, uning oldida qiyshanglab turgan ayol — uning kelini etib namoyishi etildi.

Qadimda, aniqrog‘i, yaqin o‘tmishda ham kelinlar qaynota va qaynog‘alari oldida hatto ovoz chiqarib kulishga uyalgan, ular o‘rtasida hamisha

hoyo va odob pardasi turgan. Ko‘rib turganingizdek, mana shu hech narsadan shov-shuv yaralayapti. Kimdir yoqa ushlayapti, kimdir afsus bilan bosh chayqayapti, yana kimdir bu G‘arbning ta‘sir ekanini ta‘kidlayapti. Biroq qadim bu yerda voqeaning sababida emas, balki mana shunday holatlar ham yuz berishi mumkinligi ong ostiga sizdirilishida. Ya‘ni avvaliga odamlar yoqa ushlaydi, keyin “Ilgari ham shunaqasini eshitgandim” deydi, bora-bora bu kabi hodisaga oddiy holat kabi qarab, qo‘l siltab qo‘ya qolishadi.

Bu “hech nima” ana shunda o‘z kuchini ko‘rsata boshlaydi: bu kabi munosabatlar ko‘payishi mumkin. Chunki odamlar bu holatga o‘rganib, ya‘ni ularning ko‘zlari ham, quloqlari ham, onglari ham bunga moslashib, oddiy ijtimoiy-maishiy voqeelik tarzida uni o‘zlashtirib olgan bo‘ladi. Bu degani ijtimoiy-axloqiy me‘yorlar buziladi yoki shaxsiy axloqsizlik ijtimoiylashadi va u endi ijtimoiy axloqsizlikka aylanadi.

Milliy axloqiy me‘yorlar esa har bir millatda milliy qadriyatlar asosida shakllanadi. Bu kabi qadriyatlar asoslangan ijtimoiy axloq devorlarini qulatilish oson emas. Xuddi qadriyatlarining o‘zi yillar, asrlar davomida, asta-sekinlik bilan shakllangani kabi ularning yemirilishiga qaratilgan maqsadlar ham asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi.

Yuqorida ta‘kidlaganimizda, takrorlashlar, qayta-qayta ko‘rsatishlar orqali bu kabi ma‘naviy inqirozlarga

kabi mediamahsulotlarning ijtimoiy-ma‘naviy mohiyatini kuzatib borishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim.

Afsuski, ko‘p holatda buning aksini ko‘ramiz. Ya‘ni gohida ilm yoki ijod vakillarining kuzatuvchilari va ularning qo‘ygan postlariga “yoqdi” belgisini qo‘yuvchilar o‘sha biz kuyinib tanqid qilayotgan, axloqsiz mediamahsulotlar tayyorlovchilar kishilar yoki guruhlaridan o‘nlab, hatto yuzlab barobar kam. Bu esa jamiyat uchun xavfli bo‘lgan holat — omma didi o‘tmashlab borayotganidan, xatardan darak beradi. O‘sha omma ham biz, bizning yaqinlarimiz, bolalarimiz. Agar biz bundaylarning postlarini kuzatmasak va e‘tibordan chetda qoldirsak, eng muhimi, farzandlarimizning mediadidini, mediaehtiyojini to‘g‘ri tarbiyalay olsak, bu omma didini oshirishning muhim garovi bo‘ladi.

To‘g‘ri, bu oson emas. Negaki ko‘rma degan narsani ko‘rishga, olma degan narsani olishga odamdagisi ishtiyoq azaldan mavjud va bu uning tabiatiga xos. Demak, tarbiya usullarini, ijtimoiy tarbiya tizimini shundan kelib chiqib yaratishimiz va amalga oshirishimiz lozim. Qolaversa, bunda ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim o‘rin tutadi.

Xullas, yo‘q narsadan shov-shuv yaratayotgan va milliy qadriyatlarimiz o‘zagiga chang solayotgan mediamahsulotlardan ogoh bo‘lish millat kelajagi, o‘z kelajagimiz uchun qayg‘urish demakdir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 746. 34972 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda. “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.	Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov Musahhih: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro‘ziyev Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz ko‘chasi, 85-uy O‘za yakuni — 21:20
---	--	--	---	--

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05 Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.